# KONSTITUTSIYA – ADOLAT MEZONI

Hozirgi kunda yer yuzida mavjud davlatlarning deyarli barchasi o’zlarining erkin siyosati, tili, davlat ramzlariga ega. Ammo ularning hammasi ham o’z konstitutsiyasiga egaemas. Milliy ramzlar qatorida tilga olinadigan konstitutsiyaga bizning mamlakatimiz ham egaekanligi bizning baxtimiz albatta.

Ulug’ ajdodlarimizning asriy armonlari, erkinhayot, farovon jamiyat va adolatli davlat barpo etishdek eng ezgu tilaklar va ulug’ orzularini o’zida mujassam etgan Davlatimiz Konstitutsiyasi barcha qabul qilinadigan qonunlar va me’yoriy hujjatlar uchun mustahkam asos va dasturulamal bo’lib xizmat qilmoqda.

**Bugun 8-dekabr O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabulqilinganiga 28-yil to’ldi. Shu munosabat bilanToshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti barchangizni ushbu sana bilan muborakbod etadi.** Mustaqilligimiz abadiy bo’lsin. Doimo yurtimiz tinch va osmonimiz musaffo bo’lsin. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi xalqimiz farovoniligi uchun xizmat qilsin.

**Konstitutsiya bayramingiz muborak bo’lsin, azizlar!**